

**FISKAL BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAJBURIY  
SUG'URTA TURLARINING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI, MAVJUD  
MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398556>

**Abdullayev Erkinjon A'zamovich**

*“Farovon sug'urta” AJ bosh direktori*

[erkin.azamovich@gmail.com](mailto:erkin.azamovich@gmail.com)

***Annotatsiya.** Mavzu doirasida mamlakatimizda mavjud majburiy sug'urta turlarining mohiyati, mavjud muammolari ularni bartaraf etish borasida so'z borgan. Shuningdek, majburiy sug'urtani amalga oshirish mexanizmini optimallashtirish, ta'sirchan choralar qo'llash orqali mamlakatda fiskal barqarorlikni ta'minlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** majburiy sug'urta, yuklatilgan sug'urta, sug'urta mukofoti, akvizitsion xarajatlar, zararlilik, zaxira fondlari*

Ma'lumki, sug'urta faoliyatini amalga oshirish jarayonida turli xil moliyaviy mexanizmlar orqali davlatning ijtimoiy - iqtisodiy funksiyalarini qisman ta'minlaydi, mamlakatning fiskal barqarorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunga misol sifatida sug'urta tashkilotlarining ixtiyoriy, majburiy shakllarda xizmatlarini ko'rsatishi, investitsiya faoliyati, orqali mamlakat budjetiga soliq tushumlarini ma'lum darajada ta'minlaydi, qayta sug'urta xizmatlarini amalga oshirish orqali mamlakat pul-kredit siyosatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Majburiy sug'urta turlarining mamlakatning fiskal barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati hozirgi kun holatida dolzarb bo'lib, mamlakatimizda juda kam tadqiq etilgan mavzulardan biri hisoblandi.

Tabiiyki quyidagi mulohazalar yuzaga keladi, majburiy sug'urtaning tub mohiyati, aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlashdagi ahamiyati, mamlakat budjetiga soliq tushumlarini ta'minlashda o'rni, sug'urtaning soliqdan farqli jihatlari, mamlakatda majburiy sug'urta turlarining ortishi mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri va sh.k.

Majburiy sug'urta to'g'risida qonunchiligimizda turli tushunchalar berilgan bo'lib, majburiy sug'urta turini me'yorlovchi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda sug'urta qildiruvchi sug'urta tashkiloti bilan sug'urta shartnomasini tuzishi shartligi belgilangan.<sup>29</sup>

Majburiy sug'urtaning qoidalari, shartnomaning namunaviy turlari, tuzish tartibi, sug'urta tariflari, shartnomaning amal qilish davri, ommaviyligi qonunchilik bilan tartibga solinadi degan xulosa kelib chiqmoqda. Demak, majburiy sug'urta soliqlar bilan mazmunan bir xil tushunchaga ega bo'lmoqdam? Agar shunday bo'lsa davlatlar nima sababdan sug'urtalash majburiyatini yuzaga keltiruvchi tartibga solish murakkab bo'lgan sohalar bo'yicha konsolidatsiyalashgan budjet tarkibiga kiruvchi davlat maqsadli jamg'armalarini tashkil etmaydi?

Qonunchilikka asosan majburiy sug'urta shartnomalari ommaviy shartnoma sifatida e'tirof etilsada ayrim majburiy sug'urta turlari shu kunga qadar nima sababdan o'z iste'molchilari qamrovini to'liqligicha qamray olmadi? Majburiy sug'urta turlari bo'yicha qamrov ta'minlanmas ekan, rejadagi soliqqa tortiladigan baza ham o'z-o'zidan shu soha doirasida kamayish tendensiyasiga ega bo'ladi, bu orqali mamlakatning fiskal barqarorligiga to'g'ri proporsional ta'sirini ko'rsatadi. Ayb kimda? Ushbu savollardan so'ng tabiiy bir xulosa yuzaga keladi mamlakatda tartibga solish va nazorat qilish murakkab bo'lgan sohalarni majburiy sug'urta mexanizmi orqali tartibga solishga harakat qilish kim uchun manfaatli, sug'urta tashkilotlari uchunmi, davlat uchunmi yoki bo'lmasa o'z faoliyati doirasida olgan foydasini yashirish va bu orqali soliqdan qochish maqsadida ushbu tashkilotlar yoki shaxslar uchun dolzarb bo'lmagan, nazarda tutilgan tavakkalchiliklarning sodir bo'lishi mantiqan yiroq bo'lgan turli xil sug'urta shartnomalariga pul ko'chirish nazarimizda mamlakatda yashirin iqtisodiyotni rag'batlantirayotgandek namoyon bo'lmoqda.

Albatta yuqorida keltirilgan savollar o'rinli bo'lib, ushbu savollarni ayni bir misollarda, keyslarda ko'rib chiqsak, mavjud muammolarni sanasak. O'zbekiston

---

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 914-moddasi

Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rinojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorining 1-ilova yo‘l xaritasining ikkinchi bandida “Majburiy sug‘urta turlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonun loyihasini 2020-yil oktabr oyiga qadar ishlab chiqish belgilangan edi. Ushbu qonun loyihasidan ko‘zlangan maqsad majburiy sug‘urta turlarining yagona standartlarini belgilash, yuklatilgan sug‘urta turlarini qonun bilan tartibga solish, majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha yagona axborot tizimini shakllantirish va yuritish orqali majburiy sug‘urtaning doimiy monitoringini olib borish nazarda tutilgan edi. Ammo ushbu qonun loyihasining kun tartibidan chiqarib tashlanishi majburiy sug‘urta turlarini ma’lum darajada tizimlashishini ortga surmoqda.

Majburiy sug‘urta turlarini to‘liq ro‘yxatini ushbu maqolada keltirish ma’lum darajada katta hajmni egallasada imkon qadar qisqa segmentda keltirishga harakat qilindi:

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligi (*annuitet bilan birgalikda*);
- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi;
- tashuvchining fuqarolik javobgarligi;
- xavfli ishlab chiqarish obyektlari;
- qurilish-montaj qaltisliklari;
- boshqa yuklatilgan majburiy sug‘urta turlari.

Misol sifatida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishda mamlakatimizda 562 014 ta (*01.01.2024 yil holatiga dolzarb*)<sup>30</sup> tashkilot faoliyat yuritayotgan bo‘lsa ushbu tashkilotlarning sug‘urtalanganlik qamrov darajasi **o‘n foizga** ham yetmagan. Ushbu ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtasi 2009 yilda amaliyotga joriy qilingan bo‘lsada qariyb **15 yildan** buyon sug‘urta bozorida o‘z o‘rnini topganicha yo‘q.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta tariflarining yillar davomida monitoringining

<sup>30</sup> <https://stat.uz/uz/nashrlar?start=10>

yoʻqligi, mamlakatning makroiqtisodiy koʻrsatkichlari bilan oʻzaro bogʻlanmaganligi ushbu majburiy sugʻurtaning yillar davomida zararlilik darajasini ortishiga sabab boʻlmoqda. Zararlilik darajasining ortishi natijasida sugʻurta tashkilotlari tomonidan ushbu sugʻurta maxsulotini sotishda turli xildagi sunʼiy toʻsiqlarni joriy etishga undamoqda. Sugʻurta tovonini toʻlashni asossiz rad etish, sunʼiy kechiktirish kabi holatlar ortmoqda.

Shu jihatiga alohida urgʻu berish lozimki sugʻurta tashkilotlari notijorat tashkiloti emas-ki begʻaraz faoliyat yuritsa, sugʻurta tashkilotlarining asosiy maqsadi foyda olish ekan oʻz-oʻzidan ikki tomon manfaatini taʼminlaydigan majburiy sugʻurtani taribga solish boʻyicha moliyaviy mexanizmga zaruriyat tugʻiladi.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilishda ham shunday holatni kuzatish mumkin. Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish amaliyotga 2015-yilda joriy etilishiga qaramasdan uzluksiz monitoring tizimi yoʻlga qoʻyilmagan, oqibatda turli xil baxtsiz hodisalar, yoʻl transport hodisalari natijasida yuzaga kelgan fuqarolik javobgarliklari natijasida ortiqcha tartibsizliklar yuzaga kelishiga sabab boʻlmoqda.

Yuqorida taʼkidlangan majburiy sugʻurta turlarini oʻsish tendensiyasini quyida keltirilgan maʼlumotlar asosida tahlil qilib koʻrsak (1-jadval).

## 1-jadval. Majburiy sug'urta turlari bo'yicha ma'lumot<sup>31</sup>

mln.s

o'm

Sug'urta turlari	Umumiy sug'urta mukofotlari			Sug'urta to'lovlari		
	31.12.2022	31.12.2023	O'zgarish, %	31.12.2022	31.12.2023	O'zgarish, %
<b>Majburiy sug'urta, shu jumladan:</b>	<b>518 042</b>	<b>668 071</b>	<b>+29,0%</b>	<b>242 146</b>	<b>249 349</b>	<b>+3,0%</b>
ish beruvchining fuqarolik javobgarligi (annuitet)	26 766	35 645	+33,2%	9 332	12 658	+35,6%
ish beruvchining fuqarolik javobgarligi	156 756	220 675	+40,8%	65 086	72 871	+12,0%
transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi	234 084	292 201	+24,8%	158 660	155 890	-1,7%
tashuvchilarning fuqarolik javobgarligi	4 028	3 840	-4,7%	134	188	+40,6%
xavfli ishlab chiqarish obyektlari	21 204	28 599	+34,9%	-	-	0%
qurilish-montaj qaltisliklari	58 793	72 034	+22,5%	607	115	-81,1%
boshqalar	16 411	15 078	-8,1%	8 327	7 626	-8,4%

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 33,2 foiz o'sishi ta'minlangan bo'lib, o'sishning asosi sifatida mehnatga haq to'lash jamg'armasining o'sishi bilan qariyb bog'liq. Vaholangki, yangi ochilgan tashkilotlarda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash lozimligi, sug'urtalanmagan taqdirda ta'sirchan choralarning sust ekanligi sabab bo'lmoqda.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda qamrov darajasi yuqori bo'lib, bunga sabab sifatida tartibga solish bilan bog'liq ta'sirchan choralarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligida deb bilishimiz mumkin. Ammo ushbu majburiy sug'urta turida sug'urta mukofoti va sug'urta to'lovlarning nisbati 2022-yilda 67,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 53,4 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga ushbu sug'urta shartnomasini tuzish bilan bog'liq ish yuritish xarajatlarini (akvizitsion xarajatlar) ham esdan chiqarmaslik lozim.

<sup>31</sup> <https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-for-im> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlov berildi.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta mukofotini 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 4,7 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

O'z navbatida yuqorida keltirgan muammolarimiz yuzasidan hozirda sug'urta bozorini nazorat qiluvchi (*e'tibor bering tartibga soluvchi emas*) vakolatli davlat organi tomonidan ilgari surilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida o'z aksini topdi. Bunda soliq qo'mitasiga ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalarini o'z vaqtida rasmiylashtirilishini ta'minlash majburiyati yuklatildi. Transport vazirligiga esa tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalarini o'z vaqtida rasmiylashtirilishini ta'minlash majburiyati yuklatildi. Shartnomalarning majburiy tuzilishi bo'yicha tegishli tizimni (modullar, dasturiy mahsulotlar) ishlab chiqish va joriy etish Istiqbolli loyihalar milliy agentligi zimmasiga yuklatilgan bo'lsada, amalga oshirish mexanizmi aniq yoritilmagan.

Bildirilgan muammolar va ilgari surilgan taklif, chora-tadbirlar yuzasidan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi asosiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tarkibida o'sib boruvchi zaxira fondini shakllantirish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq;

- tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda mazmunan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda tavakkalchilik turlari bir-biriga o'xshash bo'lganligi sababli, ushbu sug'urta turlarining birlashtirilishi, nazorat qilish mexanizmi samaradorligini orttiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azimov R. S. Обязательное страхование в Узбекистане. “Iqtisodiyot va turizm” Xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali 2022, T. 2(4) 2022. 5-18.
2. Baker, T. Constructing the insurance relationship: Sales stories, claims stories, and insurance contract damages. Tex. L. Rev., 72, 1993.
3. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
4. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
5. Kobulov K. et al. Modeling the processes of forming a strategy for the revenue potential of local budgets //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – T. 12. – №. 6. – C. 1210-1216.
6. Malikov T., Kobulov K. Models of market economy formation and Interaction of fiscal policy //International Journal of Economic Growth and Environmental Issues-ISSN. – C. 2321-6247.